

O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Joriy davrda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. O'zbekiston sanoatining asosiy ko'rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Joriy davrda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, respublikada 63,3 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarning katta qismi quyidagi yo'nalishlarga tegishli bo'ldi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 12,7 mingta (20,1 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 8,9 mingta (14,0 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,4 mingta (10,1 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 5,2 mingta (8,2 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,4 mingta (6,9 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,9 mingta (6,1 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 2,9 mingta (4,7 %)ga to'g'ri keldi.

1-rasm. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra



II. O'zbekiston sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar–iyun oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi hajmi joriy narxlarda 637,2 trln so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **8,0** foizga oshgan.

1-jadval. Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi hajmi va fizik hajm indeksi

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
O'zbekiston Respublikasi	637 205,9	108,0
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 950,5	107,5
Andijon viloyati	54 193,1	109,2
Buxoro viloyati	26 335,0	108,2
Jizzax viloyati	20 331,8	112,3
Qashqadaryo viloyati	25 510,3	108,3
Navoiy viloyati	155 012,4	105,4
Namangan viloyati	20 311,5	108,7
Samarqand viloyati	32 655,5	109,8
Surxondaryo viloyati	9 611,6	108,2
Sirdaryo viloyati ¹⁾	13 848,4	108,1
Toshkent viloyati	99 989,2	108,4
Farg'ona viloyati	29 647,8	108,3
Xorazm viloyati	17 972,9	108,5
Toshkent shahri	109 587,6	108,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati (**139,0** mln so'm), Toshkent shahri (**34,3** mln so'm) va Toshkent viloyatida (**31,5** mln so'm) qayd etildi. Ushbu hududlarda qayd etilgan natijalar respublika o'rtacha ko'rsatkichi (**16,6** mln so'm)dan yuqori bo'ldi.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **106,1** % ni tashkil etdi. Bunda Jizzax viloyati – **110,3** %, Samarqand viloyati – **107,8** % va Andijon viloyati – **107,4** % o'sish sur'ati bilan respublika ko'rsatkichidan yuqori natijaga erishdi.

¹⁾ viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini hisobga olgan holda.

2-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (oylik)

Respublika sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri keldi. Uning umumiy hajmi **549,7** trln so'mni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **86,3** foizga yetdi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **42,4** trln so'm (**6,7** %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **41,7** trln so'm (**6,5** %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **3,3** trln so'm (**0,5** %) hajmni tashkil etdi.

3-rasm. Seksiyalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi
2026-yilning yanvar-iyun oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta seksiya B, C, D, E dan tashkil topgan:

B - tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishdan iborat.

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar-iyun oylarida respublikamizda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi 8 xil mahsulot ishlab chiqarildi. Bular: tabiiy gaz – **18,3** mlrd m³, neft – **313,8** ming t, ko'mir – **2,5** mln t, avtomobil benzini – **614,2** ming t, dizel yoqilg'isi – **568,0** ming t, portlandsement – **10,1** mln t, ip kalava – **433,6** ming t, yumshoq bug'doy va spelta uni – **724,1** ming t.

2-jadval. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun ¹⁾	2025-yil yanvar-iyun ¹⁾	2026-yil yanvar-iyun
Avtomobil dvigatellari, dona	125 210	116 543 ²⁾	126 671
Avtomobil benzini, ming t	675,9	579,7	614,2
Dizel yoqilg'isi, ming t	505,1	556,4	568,0
Ko'mir, mln t	2,6	3,0	2,5
Neft, ming t	364,6	323,9	313,8
Tabiiy gaz, mlrd m ³	22,5	21,9	18,3
Gaz kondensati, ming t	625,5	575,2	462,1
Portlandsement, mln t	7,7	9,9	10,1

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ "UZAUTO MOTORS POWERTRAIN" AJ tomonidan 2026-yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davri bo'yicha avtomobil dvigatellari hamda silindr bloklari ishlab chiqarish hajmlariga oid ma'lumotlar alohida aniqlashtirilgan holda taqdim etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Qayta ishlash sanoatida oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 16,8 foizni, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, charm va undan tayyorlangan buyumlar ulushi 13,9 foizni tashkil etadi. Mashina va uskunarlar, kompyuterlar, elektron va optik buyumlar, elektr jihozlari, boshqa guruhlariga kiritilmagan mashina va uskunarlar, avtotransport

vositalari, treyler va yarim tirkamalar, boshqa transport vositalari, shuningdek, mashina va uskunalarni ta'mirlash hamda o'rnatishdan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish ulushi 16,3 foizga, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari ulushi esa 6,6 foizga tengdir.

3-jadval. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni
yanvar-iyun oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil ¹⁾	2026-yil
Yuk avtomobillari	2 268	2 751
Yengil avtomobillar	208 975	235 794
<i>shundan:</i>		
Maxsus yengil avtomobillar	23 353	29 582
"Cobalt"	73 102	82 951
"Damas"	45 992	42 663
"CHEVROLET DAMAS MOVE" ²⁾	-	600
"Tracker"	22 847	23 249
"Onix"	17 249	18 715
"KIA"	11 763	15 184
"Chery"	4 131	4 384
"Haval"	3 538	5 061
"BYD"	7 000	13 405

¹⁾ 2025-yilning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ 2026-yil aprel oyida 132 ta, may oyida esa 324 ta avtomobil ishlab chiqarilgan.

Elektr ta'minoti, gaz, bug' yetkazib berish va havoni konditsiyalash seksiyalari bo'yicha

2026-yilning yanvar-iyun oylarida **44 140,8** mln kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 %ga ko'pdir (elektr energiyasi ishlab chiqarish asosiy faoliyat turi bo'lmagan kichik tadbirkorlik subyektlari va uy xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hisobga olinmagan).

Yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmi esa **18,1** foizga kamaygan.

2026-yil yanvar-iyun oylarida ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida olinadigan gaz ishlab chiqarilmagan.

4-jadval. Elektr energiyasi va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun ¹⁾	2025-yil yanvar-iyun ¹⁾	2026-yil yanvar-iyun
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat	40 834,0	41 747,1	44 140,8
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	<i>36 897,3</i>	<i>31 282,2</i>	<i>29 832,8</i>
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlari asosida)²⁾</i>	<i>3 936,7</i>	<i>10 464,9</i>	<i>14 308,0</i>
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	12 703,5	11 338,0	9 284,7

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ Asosiy faoliyati elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'lgan kichik korxonalar.

Suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish seksiyalari bo'yicha (yirik korxonalar tomonidan)

To'qimachilik chiqindilari miqdori o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,7** foizga oshgan bo'lsa, oqova suvlarni chiqarib tashlash, tashish va tozalash xizmatlari hajmi **12,3** foizga oshdi.

5-jadval. Suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi va chiqindilar bo'yicha ayrim ko'rsatkichlar

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun ¹⁾	2025-yil yanvar-iyun ¹⁾	2026-yil yanvar-iyun
Oqova suvlarni chiqarib tashlash, tashish va tozalash xizmatlari, mlrd so'm	310,9	331,1	371,7
Chiqindi o'ralari, tindirgichlar va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish xizmatlari, mln so'm	199,4	204,5	207,3
To'qimachilik chiqindilari, ming t	9,2	11,9	13,4

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Mahsulot turlari bo'yicha **sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda shakllantiriladi. Bularga tog'-kon sanoati, qayta ishlash sanoati, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish hamda utilizatsiya qilish (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Ayrim hollarda yakuniy qiymat va qo'shiluvchilar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar raqamlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
O. Izmailov
+998 71 203-80-00 (1205)

